TA'LIM SOHASINI RAQAMLASHTIRISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR

Abdullayeva Fotima Baxtiyor qizi - GulDU Biotexnologiya yo'nalishi talabasi
E-mail: fotimaabdullayeva571@gmail.com

Anotatsiya: Maqola ta'lim jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning shart-sharoitlari, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ayrim masalalari, ta'lim berish jarayonida zamonaviy yondashuvning axamiyati keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, zamonaviy innovatsiya, zamonaviy yondashuv, raqamli texnologiya, pedagog.

O'zbekiston Respublikasida barcha sohalar qatori ta'lim sohasiga ham yetarli darajada davlat e'tibori qaratilgan. Tayyorlanayotgan kadrlarimiz raqobatdoshliligi, ilmiy salohiyati, malakasi va tajribalari hech bir rivojlangan davlatlarda tayyorlanayotgan kadrlardan kam emas. Bu esa ta'limni yanada rivojlantirish va xorijiy tajribalar bilan boyitishni taqozo etmoqda. Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor, kun sayin oshib bormoqda. Innovatsion yondashuvlar ta'lim tizimini modernizatsiyalash va ta'lim samaradorligiga erishishning asosiy shartidir. Zero, bugungi kun yoshlarining tanlagan sohasiga qiziqishini yanada oshirish, layoqati bor yigit-qizlarni ta'limga va mutaxassisligiga to'g'ri yo'naltirish ta'lim-tarbiyada erishajak yutuqlarimiz samarali bo'lishini ta'minlaydi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor, kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchlik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

Pedogogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchi-talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Zamonaviy pedagogik innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. Pedagogik innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta’limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko‘rsatiladi. Ta’lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarining kirib kelishi ta’lim jarayonini yanada sifatli tashkil etishga ta‘sir ko‘rsatayotgani ko‘zga tashlanmoqda. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish, ta’lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish- bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Ayniqsa shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalardan ta’lim jarayonida foydalanish ancha samaradorli ekanligi amalda isbotlanmoqda. Shunday ta’lim texnologiyalardan biri innovatsion ta’lim texnologiyasidir. Innovatsiyalarning ta’lim jarayoniga kundan-kunga tezlik bilan kirib kelishi tizimli yondashuv asosida talabalar savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish kerakligini zaruriyat qilib qo‘yadi.

Bugungi kunga kelib ta’lim, ijtimoiy, iqtisodiy, umuman barcha sohalar asta-sekinlik bilan raqamli iqtisodiyotga o‘tkazilmoqda. Bulardan eng asosiysi ta’lim sohasini yaqqol misol qilib keltirishimiz mumkin. Chunki ta’lim tizimi kundan kunga yangilanib turishi lozim. Sababi shundaki, zamonaviy yondashuvlar asosida qurilgan darslar hech qaysi o‘quvchining diqqatidan chetda qolmaydi. Shu sababli, ko‘plab psixolog va olimlar aynan shu borada bir qancha tajribalar o‘tkazishgan. Ma’lum bo‘lishicha, har qanday yoshdagi o‘quvchining diqqati uzog‘i bilan yigirma daqiqa davomida bir joyga to‘planib, ma’lumotlarni shu vaqt davomidagina qabul qila olar ekan. O‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb qilish uchun o‘qituvchi qanday metodlardan foydalanishi kerak-? Shunday muammoli va bahs munozaralarga sabab bo‘lgan ushbu vaziyatda, zamonaviy innovatsiyalar bizga qo‘l keladi. Zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar nafaqat o‘quvchining tez va oson ma’lumotlarni qabul qilishini ta’minlaydi, bundan tashqari o‘qituvchilar uchun ham sanab o‘tsa arzigulik bir qancha qulayliklar yaratadi:

-Ma’lumotlarni tez va oson almashish;

-Turli xil prezentatsiyalar, animatsion tekstlar, video darsliklar orqali darslarni qiziqarli va sifatli ta’minlash;

- Jahon standartlariga mos darslarni tashkil etish va rivojlangan mamlakatlarning pedagogik metodlarini o‘zlashtirish va fikr almashish;

- Eski va an’anaviy metodlarning o‘rniga modernizatsiyalangan texnologiyalar va ulardan foydalanib o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish imkoni mavjud. Shu kabi ko‘plab foydali jihatlarni sanab o‘tish joizdir.

Ilmiy texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolutsiya sharoitida darslarni tashkil etish XXI asrning murakkab talablaridan biri bo'lib kelmoqda. Shu bois, zamonaviy metodlar va ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglardan foydalanish o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirish bilan birga ularning qobilyatlarini rivojlantirish, raqobatbardosh yetuk mutaxassis bo'lish hamda ijobiy kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam berishi shubxasiz. Zamonaviy ta'limning talabi o'quvchilarga imkon qadar ko'proq bilim berish emas, balki ularni o'z-o'zidan o'rganishga, nafaqat bilishga, balki olingan ma'lumotlar bilan ishlay olishga o'rgatishdir.

Ta'lim innovatsiyalar salohiyatini mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganish, pedagogik innovatsiyalar sifatini baholash, buning uchun zarur bo'lgan mezonlarni ishlab chiqish va ta'lim muassasalarini ekspertizadan o'tkazishni tashkil etish muammosining dolzarbligini ko'rsatadi. Shu o'rinda pedagogik innovatsiyalar muammosini tizimli hal qilish- pedagogik innovatsiyalar sifatini baholash tizimini ishlab chiqishni talab qiladi. Shu o'rinda, ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilishga yanada e'tibor qaratishimiz kerak bo'ladi. Xususan, har bir fakultetda ma'ruza mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan "smart" auditoriyalar yaratish, ARM fondini raqamlashtirish va elektron tizimga o'tkazish, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni yo'lga qo'yish talaba yoshlarga ko'pgina qulayliklar keltirib chiqaradi. Bu bo'yicha choralar ko'rishimiz kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimiga yangi usul va texnologiyalarni tatbiq etish umuman an'anaviy o'qitish usullarini bekor qilishni anglatmaydi. Innovatsiya aslida butun o'quv jarayonining ajralmas qismidir. Zamonaviy pedagogikaning vazifasi talabalar inttellektual faolligini oshirishda ta'lim jarayoniga yangiliklarni qo'llashni talab etmoqda. Chunki bugungi kunda ta'lim jarayonida yangiliklarni joriy etish yaxshi samara bermoqda. Ta'lim jarayonida talabalar savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan tizimli foydalanish mazmunini yoritish orqali talabalar savodxonligini oshirishning tashkiliy modelini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish texnologiyasini yaratish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'afforov F.H. Ta'lim tizimini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni joriy etish. International School Of Finance Technology and Science 2022. 94 b.
2. Ishmuxammedov P.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Международный научный журнал. 2004. 85 b.
3. Djamalova Z.S. innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayonida tutgan o'rni. Innovative, educational, natural and social sciences.2021. 891-893 b.
4. Qurmanova Q. E. Shrazov A. SH. Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish. Oriental art and culture. 2020. 152-155.